



QORAQALPOG'ISTON ARXEOLOGIYASI

Musayeva Gavharjon Alisherovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Xo'jayli tumani 26-maktabda tarix fani o'qituvchisi

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi oliy ilmiy muassasa. Asosiy vazifasi tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish hamda ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni larni amalga oshirishdan iborat. Qoraqalpog'istonda ilmiy tekshirish ishlarini muvofiqlashtirish markazi hisoblanadi.

Qoraqalpog'istonda dastlabki ilmiy muassasa — Kompleks ilmiy tekshirish instituti 1931 yil tashkil etilgan. 1939-yil bu institutning Qoraqalpog'iston XKS huzuridagi Til va adabiyot intiga aylantirildi. Institut 1947-yil O'zbekiston FA tarkibiga kirdi va Qoraqalpog'iston iqtisodiyot va madaniyat ilmiy tekshirish instituti deb nomlandi. 1957-yil institut Kompleks ilmiy tekshirish institutiga aylantirildi. 1959-yil ushbu institut negizida O'zbekiston FA ning Qoraqalpog'iston filiali tashkil etildi. 1991-yil filial O'zbekiston FA ning Qoraqalpog'iston bo'limiga aylantirildi.

Tarkibida N. Dovqorayev nomidagi Til va adabiyot instituti (1959), Tarix, arxeologiya va etnologiya instituti (1992), Bioekologiya instituti (1994), Tabiiy fanlar kompleks instituti (1994), Orolbo'yi xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti (1976— 2003-yillarda hisoblash markazi), Botanika bog'i (1989), Asosiy kutubxonasi bor (2005).

Bo'lim ilmiy tekshirish muassasalarida olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari: Orolbo'yi xalqlarining qadimiy davrdan bugungacha bo'lgan tarixi, arxeologiyasi, etnologiyasi; qoraqalpoq xalqi etnogenezi va etnik tarixi, san'at, yozma va ogzaki tarixiy manbalarni o'rganish; qoraqalpoq adabiyoti, tili va til tarixi, xalq og'zaki ijodiyoti; Orol dengizi havzasining tabiiy muhitga ta'siri, ekologik inqiroz oqibatlarini o'rganish, biologik xilmaxillik muammolari; hududdagi tabiiy boyliklardan to'g'ri va oqilona foydalanishning ilmiy asoslari, xom ashyo zaxiralari, tabiiy boyliklarni topish va ulardan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, yarimo'tkazgich material va organik birikmalar asosida elektronikaning ayrim muammolarini o'rganish, hudud sharoitida qayta tiklanuvchi noan'anaviy energiya turlaridan foydalanish; Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy rivojlanish dasturini, Orolbo'yi hududi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining matematik modellarini ishlab chiqish. Bo'lim ilmiy xodimlari o'z ilmiy yo'nalishlariga mos 33 mavzu bo'yicha ish olib boradi (2005).

Bo'lim ilmiy tekshirish muassasalarida 140 ilmiy xodim, jumladan, O'zbekiston FA ning 3 akad., 14 fan dori, 50 fan nomzodi ishlaydi. 1960-yildan Bo'limning «Axboroti» («Xabarshisi») nashr etiladi. Bo'lim olim va tadqiqotchilaridan M. Nurmuhamedov, S. Bahodirova, Q. Boyniyozov, S. Niyetullayev, S. Alliyorov, T. Mambetniyazov, A. Nasrullayev, M. Kalenderov, R. Yesemuratova, D. Qozoqboyev, A. To'raboyevlar turli davrlarda Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'lganlar. O'zbekiston Respublikasi



FAning Qoraqalpog'iston bo'limi hay'ati raislari: M. Nurmuhamedov (1959—61), S. Kamolov (1961-96), Ch. Abdirov (1996-97), T. Yeshchanov (1997—2004); 2004-yildan N. K. Aimbetov.

Qoraqalpog'istonning eng e'tiborga molik 5 ta tarixiy yodgorligi va ziyoratgohlari misolida ko'rib chiqamiz.

Birinchi manzil - «Kemalar qabristoni»

1960 yillarda Mo'ynoq shahri, ayni nomdagi orolning porti bo'lib, unga yo dengiz orqali yoki samolyotda borish mumkin bo'lgan. Aytishlaricha, bir kechaning o'zida dengizning suvi 200 metrga sayozlashgan. Guvohlar bu holatning ertasiga odamlar dengizga kelib, bu holatni ko'rib yig'lashganini eslashadi. Vaqt o'tgandan keyin portdan qirg'oqqacha kanal qazib dengizga quyishmoqchi bo'lishadi, lekin hamma urinish besamar ketib, hamma suvlar qurilishga ketib qoladi. Bugungi kunda Orol dengizi va Mo'ynoq o'rtasidagi masofa 100 km ni tashkil etadi. Aholi tevarak-atrofdagi joylardan zanglagan kemalarni qurigan Orol dengizi portlariga olib borib qo'yishgan. Sayyohlar esa odatda aynan shu manzarani tomosha qilishga kelishadi. Orol fojeasini aks ettirib turuvchi bu hudud shuning uchun ham «Kemalar qabristoni» deb atalgan. Bu manzil butun dunyo aholisi uchun qiziq va qayg'uli bo'lib qolmoqda. 2014 yilda Buyuk Britaniyaning butun dunyoga mashhur "Pink Floyd" rok gruppasi o'zining "Louder Than Words" (So'zlardan balandroq tovushda) qo'shig'i asosida suratga olingan klipi Orol dengizining sobiq qirg'oqlarida tasvirga tushirilgan. Ushbu klipda Mo'ynoq aholisi vakillari suratga tushganlar.

Ikkinchi manzil - «Ayoq qal'a»

Ellikqal'a tumanida joylashgan «Ayoq qal'a» tarixiy yodgorligi ohaktoshli tepalikning tekislik qismida to'rtburchak holatda joylashgan. Uning qurilishi miloddan avvalgi II - III asr boshlariga to'g'ri keladi. Himoya devorlarida arka shaklidagi yo'lak va uning ustida kamanchilar o'q otishlari uchun tuynuklarni ko'rish mumkin. Bu erda qadimgi Xorazm tilida oromiy harflari bilan yozilgan yozuv ham topilgan. Betakror obida o'z vaqtida Xorazmning shimoliy-sharqiy chegarasida mustahkam istehkom vazifasini o'tagan. Harbiy garnizon sifatida ishlatilgan ushbu qal'a atrofdagi boshqa shunga o'xshash qurilmalar qatorida Amudaryo qirg'og'ida yashagan aholining tinchligini ta'minlangan.

Mutaxassis aytishiga qaraganda, Qoraqalpog'istonda bu kabi qal'alar 150 dan oshiqni tashkil qiladi. Har birining nomi va xususiyati o'zgacha bo'lgan.

Uchinchi manzil-«Aqchako'l»

Cho'lning qoq o'rtasida marvariddek tovlanib turgan Aqchako'lning umumiy maydoni 1150 ga teng, eng chuqur joylari 12 metrgacha etadi. Hozirda ushbu hududda «Bo'ston turizm» fermer xo'jaligi tomonidan o'tovlar lageri, ovqatlanish, tiniq suvda cho'milish, ko'l bo'ylab kater va katamaranda sayr qilish, baliq ovlash va boshqa xizmat turlari tashkil qilingan. Shu bilan birga «Tuproqqal'a tur» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan zamon talablariga mos 120 o'ringa mo'ljallangan 3 yulduzli mehmonxona, tematik park, amfiteatr va boshqa ob'ektlarning qurilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu ko'lning oldida o'tovlar ham mavjud. Baliqchilar Aqchako'ldan sazan balig'ini ko'proq tutishlarini aytib o'tishdi.



To`rtinchi manzil- Hokim Ota – Sulaymon Baqirg`oniy ziyorat majmuasi

Qoraqalpog`iston Respublikasi Qo`ng`irot shahridagi Hokim Ota – Sulaymon Baqirg`oniy ziyorat majmuasida hozirda rekonstruksiya ishlari ketmoqda. Majmuaga bugungi kunda nafaqat mahalliy aholi, balki chet eldan kelgan mehmonlar ham tashrif buyuradi.

Sulaymon Baqirg`oniy Ahmad Yassaviyning eng birinchi shogirdlaridan bo`lib, islom dinini Markaziy Osiyoda keng yoyilishida o`z hissasini qo`shgan. Shuningdek, Sulaymon Baqirg`oniy turkiy she`riyatning ham yirik vakillaridan biri sanaladi. Baqirg`oniy taxallusining berilishi esa uning tuyasi bilan bog`liq. Erlik aholining so`zlashicha, u biron joyga safarga chiqqanda tuyasi qaerda baqirib qolsa, o`sha erda qo`nim topib, dinni odamlarga tushuntirgan ekan. Shu sababli ham taxallusi «Baqirg`oniy» deyilgan.

Ziyorat majmuasi yonida kutubxona ham tashkil qilingan. Bu kutubxonada bir qancha tarixiy kitoblar mavjud, Sulaymon Baqirg`oniyning tarixi aks etgan kitob kitob ham ular qatorida turadi. Har bir mehmon kelganda o`sha kitobdan bir donasini sovg`a qilishadi.

Beshinchi manzil - Qoraqalpog`iston Respublikasi madaniyat va tarix muzeyi

Ko`pchilik qoraqalpoq diyoriga borganda albatta Osiyo durdonasi-Savitskiy muzeyini ko`rmas qaytmaydi. Lekin, madaniyat va tarix muzeyi ham juda qiziqarli eksponatlarga boy ekan. Bu muzey 2019 yilda tashkil etilgan bo`lib, bugungi kunda qariyb 90 mingga yaqin eksponatlari mavjud. Ular sizga xuddi qoraqalpoq xalqining o`tmishi haqida so`zlayotgandek bo`ladi. Eng qadimiy tarixdagi ashyolardan tortib, bugungi kunga qadar bo`lgan jarayonni aks ettirgan eksponatlarni bu muzeyda ko`rish mumkin. Qoraqalpoq tabiati, jonivorlari, qirilib ketgan hayvonlar, tosh davriga oid buyumlar, sopol idishlar kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa o`rnida

Yozda qum va tuz aralash shamollar, qishda qattiq va quruq sovuq bo`lishi, suvning sho`rligi, erning sho`rxokligi kabilar hududda aholi yashashi uchun katta noqulayliklar tug`diradi. Boshida aytganimizdek, turizm qoraqalpoq aholisi daromadini ortishiga xizmat qila olishi mumkin. Yangi ish o`rinlari yaratilishi ham dolzarbligicha qolmoqda. Joylarni kuzatar ekanmiz, qoraqalpoq zaminining turistik salohiyatidan hali to`laligicha foydalanilmayapti degan xulosaga keldik. Yaxshi targ`ibot, infratuzilmani rivojlantirish, qulay transport logistikasini yo`lga qo`yish bu salohiyatdan foydalanish imkonini oshiradi.

Nukus shahrida I. V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog`iston davlat san`at muzeyida “Orolbo`yi arxeologiyasida V.N.Yagodinining ilmiy merosi” nomli ko`rgazmasi ochildi.



Ko'rgazmada O'rta Osiyodagi eng qadimiy oromiy (aramey) alifbosidagi yozuv, qabrdan chiqqan bronzadan yasalgan qozon, bronza oyna qoldiqlari, o'rta asrlarda qimmatbaho suyuqliklarni tashish uchun qo'llanilgan maxsus sopol idish (simob ko'zacha), turli xil munchoqlar va o'rta asr shisha buyumlari namoyish etilmoqda. Ko'rgazma Qoraqalpog'iston arxeologiya ilmiy maktabi asoschilaridan biri, tarix fanlari doktori V. N. Yagodin (1932-2016 y.)ga bag'ishlanadi.



Yagodin hayotining asosiy qismini quyi Amudaryo arxeologiyasi va Kerder madaniyati muammolarini o'rganishga bag'ishladi va Mizdakxon, To'qqal'a, Xayvanqal'a, Kuyukqal'a,



Ustyurtning dastlabki ko'chmanchilari yodgorliklarida ilmiy izlanishlar olib bordi. Uning mehnati davlatimi tomonidan munosib Ko'rgazma doirasida V. N. Yagodinning hayoti va ilmiy yutuqlariga bag'ishlangan davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda yurtimizning atoqli arxeolog olimlari, talabalar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.